2026-yil
6-son

# FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

## ILMIY - METODIK

# JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

## TAHRIR HAY'ATI:

**01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
*Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

**02.00.00 – KIMYO FANLARI**
*Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor*
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik*

**03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI**
*Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik*
*Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik*

**04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI**
*Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*
*Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*

**05.00.00 – TEXNIKA FANLARI**
*Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor*
*Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor*

**06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI**
*Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik*
*Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor*

**07.00.00 – TARIX FANLARI**
*Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik*
*Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik*
*Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik*

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**
*Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi*
*To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik*

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**
*Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor*
*Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor*

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**
*Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor*
*Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)*

**11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI**
*Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor*
*Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor*

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**
*Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik*
*Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor*

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**
*Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI**
*Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor*
*Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik*

**15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI**
*Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor*
*Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor*

**16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI**
*Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor*

**17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI**
*Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor*
*Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik*

**18.00.00 – ARXITEKTURA**
*Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor*
*Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor*

**19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI**
*Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya*
*Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya*
*Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent*

**22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI**
*Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor*
*Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori*

**23.00.00 – SIYOSIY FANLAR**
*Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori*
*Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

**24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI**

*Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

**UDK: 159.9:316.6(557.1)**

**Fayziyev Zohiddin Xasanboyevich,**
psixologiya fanlari doktori (DSc), Qarshi DU dotsenti,

# MAMLAKATIMIZDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimizda zamonaviy psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur sohaning ijtimoiy-psixologik asoslari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda aholining turli qatlamlariga (ayniqsa, ta’lim, oila va mehnat jamoalarida) amaliy yordam ko‘rsatishning huquqiy-tashkiliy mexanizmlari yoritilgan. Bugungi kunda respublikamizda psixologik xizmat sohasidagi dolzarb muammolar, tizimning hozirgi holati va faoliyat samoradorligini oshirish omillari aniqlangan. Shuningdek, maqolada milliy mentalitet xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqamli texnologiyalar asrida psixologik xizmat ko‘rsatish sifatini yangi bosqichga ko‘tarishning istiqbolli yo‘nalishlari va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik xizmat, ijtimoiy-psixologik asoslar, rivojlanish bosqichlari, amaliy psixologiya, tizimli yondashuv, ijtimoiy moslashuv, istiqbolli taraqqiyot, professional kompetensiya.

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В НАШЕЙ СТРАНЕ

**Аннотация.** В данной статье систематически анализируются этапы формирования и развития современной системы психологической службы в нашей стране. В исследовании освещаются социально-психологические основы данной сферы, её роль в развитии общества, а также правовые и организационные механизмы оказания практической помощи различным слоям населения (особенно в сфере образования, семьи и трудовых коллективов). Выявлены актуальные проблемы в области психологической службы республики, текущее состояние системы и факторы повышения эффективности её деятельности. Также в статье, с учетом особенностей национального менталитета, разработаны перспективные направления и научно-практические рекомендации по выведению качества оказания психологических услуг на новый уровень в эпоху цифровых технологий.

**Ключевые слова:** психологическая служба, социально-психологические основы, этапы развития, практическая психология, системный подход, социальная адаптация, перспективное развитие, профессиональная компетенция.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

# SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASES OF ORGANIZING PSYCHOLOGICAL SERVICE IN OUR COUNTRY

**Abstract.** This article systematically analyzes the stages of formation and development of the modern psychological service system in our country. The study highlights the socio-psychological foundations of this field, its role in societal development, as well as the legal and organizational mechanisms for providing practical assistance to various segments of the population (especially in education, family, and labor collectives). Current problems in the field of psychological services in the republic, the present state of the system, and factors for increasing the efficiency of its activities are identified. Furthermore, taking into account the characteristics of the national mentality, prospective directions and scientific-practical recommendations have been developed to elevate the quality of psychological services to a new level in the era of digital technologies.

**Keywords:** psychological service, socio-psychological bases, stages of development, practical psychology, systemic approach, social adaptation, prospective development, professional competence.

Jahon ta'lim jarayonida shaxsni psixologik shakllanishini nazorat qilish, ularda psixologik barqaror tuzilmani rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish, sinfdagi turli ziddiyatli vaziyatlardan qochish, guruhiy jipslik, o'zaro hamkorlik va maqsadsari intilish kabi jihatlarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchi shaxsini psixologik rivojlantirishga ta'sir etadigan barcha bilish jarayonlar, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-emotsional holatlar va ularning o'quv faoliyatiga namoyon bo'lishini o'rganish ushbu tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ta'lim standarti, shu jumladan, ta'lim jarayonidagi muammolar sababini izlab topish va bartaraf etishda psixologik xizmatning o'rnini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar esa o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedalogiya fani va pedalogik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Arxivdan olingan ma'lumotlarga qaraganda, mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davr mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bo'lgan ayrim obyektiv va subyektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedalogik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog'liq izlanishlar va tadqiqotlar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, P.I. Ivanov, V.E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator

ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo'lib keldi. Binobarin, 70-80 yillarda Toshkent davlat universiteti psixologiya kafedrasi olimlari tomonidan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning hayotga tatbiqini amalga oshirish maqsadida talaygina ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi joriy qilindi va Respublikamizda ilk bor qator mehnat va ishlab chiqarish jamoalarida inson va mehnat faoliyati, shaxs va shaxslararo munosabatlar, ishchi va rahbar, ruhiyat va rentabellik, rahbar va jamoa psixologiyasi bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlar olib borildi. Shuningdek, 60-70 yillarda O'zbekiston Pedagogik fanlar ilmiy tekshirish instituti xodimlari P.P. Zimin, V.A. Tokareva, M.SH. Rasuleva, M. Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini o'rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, 1966 yilda Chirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid, 1973 yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish borasida olimlar tomonidan talaygina nazariy-ilmiy va amaliy uslubiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining M.G.Davletshin rahbarligidagi olimlar guruhi, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning E.G'. G'oziyev rahbarligidagi olimlar guruhi, A.Avloniy nomidagi pedagogik xodimlar malakasini oshirish markaziy institutining G'.B. Shoumarov va N.A. Sog'inovlar rahbarligidagi olimlar guruhi, Respublika iqtidorli bolalarni tanlash Markazi direktori B.R.Qodirov rahbarligidagi olimlar guruhi, Farg'ona davlat universitetidagi V.M.Karimova rahbarligidagi olimlar guruhi tomonidan olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari u yoki bu sohada psixologiyaning amaliy tatbiqini yaqqol va ravshan namoyon etmoqdaki, bu boradagi ishlar O'zbekistonda tashkil etilishi kutilayotgan psixologik xizmat tizimining dastlabki ilmiy-tashkiliy asosini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda tadqiq qilmay turib, shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda. Masalaning mohiyatiga, ya'ni tadqiqot maqsadiga konkret yondoshadigan bo'lsak, psixologik xizmatning aynan ilmiy tashkiliy mazmuni va psixologik xizmat tatbiqining amaliyotdagi faoliyat yo'nalishlari haqida ilmiy mulohazalar yuritishga va mazkur fikr-mulohazalarni O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatini tahlili nuqtai nazaridan talqin qilishga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy mazmunini quyidagi yo'nalishlar asosida tasavvur qilish mumkin:

1. Psixologik xizmatning ilmiy- amaliy asoslari;

2. Psixologik xizmatning tashkiliy faoliyat asoslari.

Psixologik xizmatning ilmiy-amaliy asoslariga psixologiyadagi ilg‘or nazariy-ilmiy, metodologik yo‘llanmalar, tamoyillar, mezonlar va xulosalarning amaliyotdagi tatbiqi kiradi. Bu tatbiq esa, ilmiy-amaliy ish jarayonining psixologik boshqarish, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahatlar kabi yo‘nalishlarida o‘z ifodasini topadi. Psixologik xizmatning tashkiliy faoliyat asoslari, deganda, qaysi sohada psixologik xizmatning tashkil etilishiga qarab shu soha yo‘nalishidagi yuqorii tashkilot qarori va shu qarorga muvofiq ta’lim muassasalarda psixologik xizmat tizimining xududiy psixologik xizmat markazlari faoliyati yoki bevosita amaliyotchi-psixologlar faoliyati orkali tatbiq etilishi tushuniladi.

Yuqoridagi ikki yo‘nalish asosida psixologik xizmat tatbiqining bugungi holatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har holda bu borada ma’lum ishlar oshirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Chunonchi, Respublika OTTlari, umumta’lim maktablarida mavjud psixologik muammolarni bartaraf etish maqsadida hududlarda psixologik xizmat tatbiqi joriy qilindi. Mazkur ko‘rsatmalarga muvofiq ta’lim tizimida sog‘lom psixologik iqlimni yaratish maqsadida psixologik xizmat ko‘rsatish, o‘quvchilarda psixologik barqarorlikni ta’minlash, jamoalarda moslashuv davrining tezda ta’minlovchi va nazorat qiluvchi amaliyotchi psixolog shtatlari joriy qilindi. Ta’lim muassasalaridagi har bir o‘quvchi yoki talabaning o‘ziga xos psixologik imkoniyatlari va kasbiy layoqati tarkib topganligining psixologik omillari asosida ish faoliyatini tashkil etishga oid talaygina ishlar qilindi va bu borada maqsadli rejalar dasturi ishlab chiqilgan. Ta’lim sohasida ancha muvaffaqiyatli tatbiq etilayogan psixologik xizmatning xarakteri va ahamiyatini tahlil qilish bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz va tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatayaptiki, har bir o‘quvchining psixologik tanlovlar asosida sinfga jalb etish, maktab jamoadagi shaxslararo munosabat muomalasini yuqori saviyaga ko‘tarishda har bir o‘quvchining ijtimoiy “Men” ligini to‘g‘ri va adekvat tarzda anglashda ancha samarali ishlar ko‘zga tashlanmoqda. Ta’lim sohasidagi psixologik xizmatning yutuqlari bilan bog‘liq batafsil ma’lumotlar ushbu muassasalarda faoliyat olib borayotgan amaliyotchi-psixologlarning ishining samaradorligida va o‘quvchi-talabalarni erishayotgan natijalariga ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etilishi va takomillashtirilishi ma’lum ma’noda Maktkbgacha va maktab ta’limi vazirligi va maktablarning qator ko‘rsatmalari asosida imkoniyati mavjud ta’lim muassasalarda psixologik xizmatning joriy qilinishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Demak ko‘rinib turibdik, barcha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmat ko‘rsatish to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa, masalaga jiddiy yondoshuv va muammoni alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganishni taqazo etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, ta’lim sohasida psixologik xizmat ko‘rsatishning bugungi holatini ikki bosqichda talqin qilish mumkin.

Birinchi bosqich- maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi, albatta, mazkur yo‘nalish bo‘yicha 80-yillardayoq Toshkent shahrining talaygina maktablarda ish boshlangan va o‘sha paytlarning o‘zidayok psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo‘lgan edi. Lekin, psixologik xizmatning boshqa hududlarda ham keng targ‘ib qilish uchun yuqori tashkilotlardan maxsus rasmiy meyoriy-huquqiy hujjatlarni va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga respublikamizning barcha maktablarida xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to‘sqinlik qilgan edi. Alohida ta’kidlash joizki, 90-yillarga kelib mustaqillik, erk, o‘zlikni anglash hislari hukmron bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko‘zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat ko‘rsatishning keng quloch yoyishi uchun ham o‘ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa, mamlakatimiz uchun xarakterli bo‘lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlarini tayyorlashning yangi bosqichiga o‘tishni belgilab berdi. Chunki, maktablaridagi ijtimoiy psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali psixologlar tayyorlamay turib, O‘zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmas edi. Shunga muvofiq, dastavval Toshkent shahrida, so‘ngra Buxoro viloyatida keyinchalik Qashqadaryo, Navoiy, Andijon, Samarqand, va boshqa viloyatlarda umumta’lim maktablari bilan bir qatorda maktablar uchun ham amaliyotchi-psixologlar mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlaganlar respublikamizning talaygina maktablarda psixologik xizmatning tashkilotchisi, targ‘ibotchisi va tadbiq etuvchisi sifatida samarali ish olib bormoqdalar.

Qolaversa, maktablarda psixologik xizmatni tashkil etish va takomillashtirish borasida Buxoro va Toshkentda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumanida qilingan barcha ma’ruzalar, ko‘tarilgan muammolar mamlakatimizdagi psixologik xizmat tatbiqining tub mohiyatini tushunish, tahlil qilish va bu borada olib borilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda psixologik xizmat ko‘rsatishning bugungi kun ilmiy-tashkiliy holatini tahlil qilar ekanmiz, albatta, respublika miqyosida psixologik xizmat ko‘lamini kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan amaliyotchi-psixologlarini tayyorlash uslubi, prinsiplari va o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni bayon etishimiz lozim:

Ma’lumki, psixologik xizmat barcha mamlakatlarda, hatto bir-biriga o‘xshamagan turli ilmiy-tashkiliy shakllarda amalga oshirilib kelmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasi rivojlangan davlatlarda psixologik xizmatning roli yuqori ekanligi ularni jahon arenalarida qo‘lga kiritayotgan natijalaridan ham bilsak bo‘ladi.

Shunga muvofiq, O‘zbekistonda psixologik xizmatni rivojlantirish va ta’lim sohasida ko‘zlagan maqsadlarimizga erishish uchun malakali va yetuk mutaxassislar kamligini hisobga olib, dastlabki qadam maktablarining eng ilg‘or va iqtidorli psixologlarini tayyorlash ishlari bilan boshlandi.

Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Maktkbgacha va maktab ta’limi vazirligi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan chiqarilgan farmoyishlar OTT va Maktkbgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining tashabbuslari bilan tashkil etilgan amaliyotchi-psixolog kurslarining ish faoliyati bugungi kunda O‘zbekistondagi psixologik xizmatni rivojlantirish uchun eng optimal tadbir sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta’kidlashimiz kerak.

Jumladan, bugungi kunda Buxoro viloyatida 200 dan ortiq, Toshkent shahrida 250 dan ortiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 124 ta va boshqa viloyatlarda jami 200 dan ziyod, demak, respublika miqyosida jami 774 tadan ortiq amaliyotchi-psixologlar tomonidan psixologik xizmat jarayonining faol tashkil etilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Biroq aholi sonining o‘sishi va ijtimoiy sohalardagi jadal o‘zgarishlar ushbu ko‘rsatkichlarni kelgusida yanada kengaytirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar, tahlillar va xulosalardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda psixologik xizmatni takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri — amaliyotchi-psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish mexanizmini har tomonlama puxta hamda muvaffaqiyatli tarzda ishlab chiqishdir. Chunki barcha sohalarda professional va chuqur saralangan psixologlar safini ham son, ham sifat jihatidan kengaytirmay turib, psixologik xizmat tizimining amaliy faoliyatdagi tatbiqini respublika miqyosida keng ko‘lamda amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bu borada olib borilgan tadqiqotimizning muhim ilmiy yangiliklaridan biri shundaki, mamlakatimizda ilk marotaba mahallalarda istiqomat qiluvchi aholining turli qatlamlari uchun xarakterli bo‘lgan emotsional-irodaviy, kognitiv va kommunikativ omillar empirik (amaliy) jihatdan o‘rganildi. Ushbu tahlillar asosida mahalla institutida psixologik xizmat samaradorligini baholash va rivojlantirishning maxsus modeli ishlab chiqilib, amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etildi.

Shu bilan birga, psixologik xizmatning mutlaqo yangi va muhim yo‘nalishi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 1-fevralda imzolangan O‘RQ-902-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun hamda Hukumatning tegishli qarorlari asosida, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarida voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog lavozimlari joriy etildi.

Bugungi kunda ichki ishlar tizimidagi inspektor-psixologlar faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Buning asosiy sababi — mahallalar va maktab ta’limi tizimida o‘z yechimini kutayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarning oldini olish, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi deviant (xulq-atvori me’yordan og‘gan) xulq-atvorni barvaqt aniqlash hamda ularga malakali psixologik yordam ko‘rsatish zaruriyati bilan izohlanadi.

Respublikamizda psixologik xizmatning bugungi holatiga tavsif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz xotimasi sifatida, mamlakatimizda ushbu tizimni yanada rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash. Psixologik xizmat ko‘rsatish sohasini tartibga soluvchi va amaliyotchi-psixologlarning maqomi hamda huquqlarini belgilovchi yaxlit qonunchilik asoslarini (masalan, "Psixologik faoliyat to‘g‘risida"gi qonun loyihasini) yanada takomillashtirish;

2. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. Oliy ta’lim tizimida amaliyotchi-psixologlar tayyorlashning milliy va xalqaro standartlarini uyg‘unlashtirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini tizimli baholash mexanizmini (sertifikatlashtirish tizimini) yo‘lga qo‘yish;

3. Integratsiyalashgan modelni shakllantirish. Mahalla, ta’lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi (inspektor-psixologlar) psixologik xizmatlarni o‘zaro hamkorlikda ishlovchi yagona tizimli tarmoqqa birlashtirish;

4. Raqamlashtirish va innovatsiyalar. Raqamli texnologiyalar asrida aholiga masofaviy va tezkor psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy platformalari hamda mobil ilovalarini yaratish, milliy mentalitet xususiyatlarini inobatga olgan metodikalarni mahalliylashtirish.

Xullas, mamlakatimizda ijtimoiy-psixologik asoslarga tayangan holda psixologik xizmat tizimini izchil rivojlantirish — jamiyatda sog‘lom psixologik muhitni barqarorlashtirish va inson kapitalini yuksaltirishning bosh garovidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. – T.: Muharrir, 2018. – 346 b.

2.Barotov Sh. R. Psixologik xizmatning nazariy va amaliy muammolari. – Buxoro: Buxoro, 2008. – 258 b.

3.Barotov Sh. R. Sotsialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane. Avtoreferat diss. dokt. psixol. nauk. – T., 1998. – 37 s.

4.Barotov Sh. R. O‘quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Buxoro, 1993. – 29 b.

5. Кадыров У.,Сандул А. Психологическая служба в воспитании и образовании: научные основы и перспективы развития. **“Фан ва таълим янгиликлари” журнали, 2025 йил, 4-сон.**

**6.**Shoumarov G‘., Qodirov U., Hojiboyev I. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2014. – 234 bet.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

**Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ**
**Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

**Bosh muharrir:**
**Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**

**Mas'ul kotib:**
**Muqimov Alisher**

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
**E-mail:** saen_2024@mail.ru
**Jurnal sayti:** www.saen.uz
**Telegram kanali:** https://t.me/saen_2024

**Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.**

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**ISSN:** 3093-8694